Jabborova Saodat Sattorovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); E-mail: sattorovna1975@gmail.com; https://orcid.org/0000-0001-5598-560X)

ISLOHOTLARNING MUHIM YO'NALISHI – MA'NAVIYATNI YUKSALTIRISH SIYOSATINING ASOSIY VAZIFALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlarning davlat rivojidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Asrlar davomida shakllangan ma'naviyatning o'ziga xos xususiyatlarini asrab qolish, uni yaqin kelajakda rivojlantirish imkoniyatlariga alohida urg'u bergan. Har qanday davlatning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi masalalari mamlakat yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi amaliy nuqtai nazardan bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, ijtimoiy manfaat, jamiyat salohiyati, madaniy saviya, ma'naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot, milliy mafkura.*

Жабборова Саодат Сатторовна (преподаватель кафедры "Общественные науки" Бухарского государственного педагогического института, доктор философии (PhD)

ГЛАВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РЕФОРМ – ГЛАВНЫЕ ЗАДАЧИ ПОЛИТИКИ ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНОСТИ

Аннотация. *В данной статье автор научно анализирует значение духовных реформ, осуществляемых в Узбекистане, в развитии государства. Она уделила особое внимание сохранению уникальных особенностей духовности, формировавшихся на протяжении веков, и возможностям ее развития в ближайшем будущем. С практической точки зрения объясняется, что развитие любой страны и ее место в мире напрямую связаны со знаниями, потенциалом, мировоззрением и духовностью молодежи страны.*

Ключевые слова: *духовность, общественная польза, общественный потенциал, культурный уровень, духовно-нравственная среда, общественный потенциал, творческое мышление, общественное развитие, национальная идеология.*

Jabborova Saodat Sattorovna (Lecturer of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, associate professor)

THE MAIN DIRECTION OF REFORMS IS THE MAIN TASKS OF THE POLICY OF INCREASING SPIRITUALITY

Annotation. *In this article, the author scientifically analyzes the significance of spiritual reforms carried out in Uzbekistan in the development of the state. She paid special attention to the preservation of the unique features of spirituality that have been formed over the centuries, and the possibilities of its development in the near future. From a practical point of view, it is explained that the development of any country and its place in the world are directly related to the knowledge, potential, worldview and spirituality of the country's youth.*

Key words: *spirituality, public benefit, public potential, cultural level, spiritual and moral environment, public potential, creative thinking, public development, national ideology.*

Kirish (Introduction). Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri, albatta, mamlakatimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning oldini olishda ma'naviyatdan samaraliroq kuch bo'lmaydi. Ma'naviyat inson axloqi va odobi, bilimlari, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan muhim tizimidir. Zero, insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi masalalari mamlakat yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. Ma'naviyatning inqirozga yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ma'naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur vazifalarning alohida davlat dasturi doirasida tizimli ravishda hal qilinishi asrlar davomida shakllangan ma'naviyatning o'ziga xos xususiyatlarini asrab qolish, uni yaqin kelajakda rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Methods). Jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni buzadigan omillarni bartaraf etish uchun kishilar xulq-atvor modellarini ijtimoiy manfaatlar va normalar bilan yanada uyg'unlashtirish choralarini ko'rish zarur bo'ladi. Bu borada qator tizimli tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi turli tashkilotlarda mavzuga doir targ'ibot ishlarini jadal olib bormoqda. Keyingi yillarda mahallalarda ham ijtimoiy manfaatlarga mos xulq-atvor modellarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar faollashganini ko'rish mumkin. Buning ustiga, davlat rahbari ham mavzuga muttasil e'tiborni qaratib turibdi. Jumladan, u "yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o'ta sharafli vazifa" ekanligini qayta-qayta eslatmoqda [1].

Muhokama (Discussion). Bugungi kunda ta'lim va madaniyat maskanlari ana shu maqsadga xizmat qilib kelmoqda. Shuning bilan bir qatorda, davlat rahbarining taklifi va talabini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida, turli o'quv markazlarida o'quv kurslarini tashkil qilish amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu kurslar fuqarolarni turli sohalarga doir bilimlar, ko'nikmalar, malakalar bilan qurollantirishni, qadriyatlari dunyosini qaror toptirishni maqsad qilmog'i darkor. Albatta, ularni davlatning maxsus buyurtmasi uning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi asosida tashkil qilish mumkin.

Mafkuraviy nigilizmni kuchaytiradigan omillarni bartaraf etish uchun milliy g'oyani rivojlantirish choralarini ko'rish kerak bo'ladi. Faqat shundagina jamiyatni mafkuraviy nigilizmdan asrash, uning ma'naviy salohiyatini ijtimoiy taraqqiyot sari yo'naltirish imkoni paydo bo'ladi. Bu borada kelgusida qilinishi zarur bo'lgan ishlar davlat rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida batafsil bayon etilgan. Jumladan, u quyidagi vazifalarga diqqatni jamlash zarurligini uqdiradi:

- "mamlakatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishda g'oyaviy-ma'naviy omillar ta'sirini oshirish;
- jamiyatimizda yangi ma'naviy makonni barpo etish hamda xalqimizda dunyoviy tafakkur tamoyillarini kuchaytirish;
- turli tahdidlarga bardoshli davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyati qurishning mafkuraviy tamoyillarini mustahkamlash;
- fuqarolarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash" [3].

Mazkur vazifalarni qisqa muddatda yoki ayrim tadbirlar yordamida hal qilib bo'lmaydi, albatta. Fikrimizcha, ularning yaqin istiqboldagi ijrosini ta'minlash uchun ilmiy tadqiqot markazlari, institutlari va fanlararo integratsiya asosida olimlarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining yuqorida tilga olingan to'rt taklifini ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmlari ifodalab berilgan normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, ta'lim maskanlarida milliy g'oya turkumidagi fanlardan saboq berishning yangi tartibini joriy qilish masalalari ustida ham bosh qotirish lozim. Bunday yondashuv yaqin kelajakda milliy g'oyani rivojlantirish va jamiyatni mafkuraviy nigilizmdan himoya qilish imkonini bergan bo'lardi.

Kishilar badiiy didini buzadigan omillarni bartaraf etish uchun adabiyot va san'at durdonalariga ijtimoiy ehtiyojni kuchaytirish kerak bo'ladi. Jamiyat a'zolarining badiiy didi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun jamiyatda, avvalo, asl adabiyot va san'at durdonalariga ehtiyoj shakllantirilmog'i kerak. Ana shunday ehtiyoj vujudga kelgan jamiyatda kishilar abadiy mavzularga bag'ishlangan, ma'naviy yuksalishga undaydigan asarlarga takror va takror murojaat qila boshlaydilar. Bu murojaatlar pirovardida yuksak badiiy didni vujudga keltiradi.

Adabiyot va san'at durdonalariga ijtimoiy ehtiyojni kuchaytirish uchun joylarda kitobsevarlar, kinosevarlar, teatr muxlislari, tasviriy san'at ishtiyoqmandlari uchun klublar tashkil etishga urg'u berish lozim bo'ladi. Bu klublar mutaxassislarni taklif qilgan holda, muayyan adabiyot va san'at asarlarini tahlil qilish, ularning bosh g'oyasini ochib berish, sujet liniyalarini tavsiflash bilan mashg'ul bo'lmog'i kerak. Eng muhimi, ushbu klublar o'z faoliyati bilan jamiyatning barcha tabaqa vakillarini qamrab olmog'i darkor. Noyob asarlar tahliliga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, eshittirishlar, maqolalar, elektron manbalar ham bu borada jiddiy samara bergan bo'lardi.

Natijalar (Results). Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyat ma'naviy salohiyatini ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omilga aylantirish uchun davlatning uni yuksaltirish va samarali boshqarish borasidagi si-

yosatini takomillashtirish zarur bo‘ladi. Davlatning ma’naviy salohiyatni asrash va yuksaltirishga yo‘naltirilgan siyosatining asosiy vazifalari unga xavf solayotgan omillarga mutanosib bo‘lmog‘i hamda jamiyatdagi xulq-atvor modellarini ijtimoiy normalar bilan uyg‘unlashtirish, fuqarolar madaniy saviyasini oshirish, milliy g‘oyani rivojlantirish, ijodkor va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy ishlarni tashkil etish va monitoring qilishni takomillashtirish, adabiyot va san’at durdonalariga ijtimoiy ehtiyojni kuchaytirish, ma’naviy merosni asrash imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat ma’naviy xavfsizligini yanada mustahkamlash bilan bog‘lanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-ж., Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020. 35-, 11-бетлар.

(2). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 296-бет.

(3). Jabborova S.S. The Role of Spirituality in the Education of a Perfect Generation. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. Volume: 04. Issue: 05. May, 2023, p. 296–299 (Journal indexed by Academic Resource Index (ResearchBib).

(4). Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. Falsafa va hayot. Toshkent, 2023, №SI-2, 105–112-betlar (09.00.00; №25).

(5). Jabborova S.S. Jamiyat ma’naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. Falsafa va hayot. Toshkent, 2023, №SI-2 105–112-betlar (09.00.00; №25).

(6). Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyatning ijtimoiy taraqqiyot manbayi sifatida xususiyatlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 3 (4), 2024, 240–246-betlar.

(7). Jabbborova S.S. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari. https://journal.fdu.uz. 2024, 2-son, 213–218-betlar.

(8). Jabborova S.S. Jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. “Tafakkur ziyosi”, Jizzax, 2023, 2-son,186–190-betlar (09.00.00; №22).

(9). Jabborova S.S. O‘zbekistonda jamiyatning ma’naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli. FarDU “Ilmiy xabarlari”, Fargona, 2023, 4-son, 64–68-betlar (09.00.00; №31).

(10). Jabborova S.S. Piritual competence – a source of social development. 2nd International Ege Congress on Social Sciences & Humanities. Ege University, Izmir, Turkiye, 2023, p. 557–560.

Boymatov Rustam (Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi)

SHAXS SIYOSIY MADANIYATI VA SIYOSIY YETUKLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs siyosiy madaniyati, uning asosiy elementlari, shakllanish omillari hamla ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, shaxs siyosiy madaniyati siyosiy yetuklikning muhim omili ekanligiga e’tibor qaratilgan. O‘z navbatida, shaxsning siyosiy yetukligi demokratik jamiyat talabi ekanligi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *demokratik jamiyat, siyosiy madaniyat, siyosiy qadriyatlar, siyosiy faoliyat, siyosiy yetuklik, mustaqil fikrlash, ijtimoiy adolat, mas’uliyat.*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗРЕЛОСТЬ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируется политическая культура личности, ее основные элементы, факторы ее формирования, а также ее общественно-политическое значение. Также подчеркивается, что политическая культура человека является важным фактором политической зрелости. С другой стороны, считается, что политическая зрелость человека является требованием демократического общества.*

Ключевые слова: *демократическое общество, политическая культура, политические ценности, политическая деятельность, политическая зрелость, независимое мышление, социальная справедливость, ответственность.*

PERSONAL POLITICAL CULTURE AND POLITICAL MATURITY

Annotation. *This article analyzes the political culture of the individual, its main elements, factors of its formation, as well as its socio-political significance. It is also emphasized that the political culture of a person is an important factor of political maturity. On the other hand, it is considered that the political maturity of a person is a requirement of a democratic society.*

Key words: *democratic society, political culture, political values, political activity, political maturity, independent thinking, social justice, responsibility.*

Kirish. Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas qismidir. U madaniyatni g‘oyaviy mazmun bilan boyitadi. Siyosatda madaniyat orqali norma va qadriyatlar izchilligi ta’minlanadi. “Siyosat” va